



NATURE – PRESERVING ITS NATURALNESS AS A NATIONAL VALUE

Samad Khudayberdievich Khudaynazarov

Associate Professor, National University of Uzbekistan

s.khudonazarov@mail.ru

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: ecology, value, desire, humanity, emotion, need, ecological culture, ecological consciousness and thinking, spiritual responsibility.

Received: 24.11.25

Accepted: 25.11.25

Published: 26.11.25

Abstract: This article analyzes the prevention of global environmental problems, the identification of their underlying causes, and the importance of values in enhancing ecological awareness and spiritual responsibility. It also examines the meaningful initiatives carried out in our country to improve the ecological situation and promote ecological culture.

TABIAT - TABIIYLIGINI ASRASH MILLIY QADRIYAT

Samad Xudayberdievich Xudaynazarov

O'zbekiston milliy universiteti dotsenti

s.khudonazarov@mail.ru

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: ekologiya, qadriyat, nafs, insoniylik, tuygʻu, ehtiyoj, ekologik madaniyat, ekologik ong, tafakkur, ma'naviy mas'ullik.

Annotatsiya: Ushbu maqolada, umumbashariy ekologik muammolarni oldini olish, uning kelib chiqish sabablarini aniqlash, ekologik xushyorlik, ma'naviy mas'ullik oshirishda qadriyatlarni o'rni va mamlakatimizda ekologik holatni yaxshilash borasidagi ezgu ishlar tahlil etilgan.

ПРИРОДА – СОХРАНЕНИЕ ЕЕ ЕСТЕСТВЕННОСТИ КАК НАЦИОНАЛЬНАЯ ЦЕННОСТЬ

Самад Худайбердиевич Худайназаров

Доцент Национального университета Узбекистана

s.khudonazarov@mail.ru

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	экология, ценность, страсть, человечность, чувство, потребность, экологическая культура, экологическое сознание и мышление, духовная ответственность.	Аннотация:	В данной статье анализируются вопросы предотвращения глобальных экологических проблем, выявления причин их возникновения, а также роль национальных и общечеловеческих ценностей в повышении экологической бдительности и духовной ответственности. Особое внимание уделено проводимой в нашей стране работе по улучшению экологической ситуации и формированию экологической культуры.
------------------------	---	-------------------	---

Kirish. Insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik eng muhim omillardan biri bo'lib kelgan. Tabiiy muhitning saqlanishi, uning asli holatini asrab-avaylash, nafaqat ekologik xavfsizlikning, balki ma'naviy barqarorlikning ham asosiy sharti hisoblanadi. Zero, tabiat – insonning yashash manbai, ma'naviy poklanish maydoni va milliy o'zlikni anglashning ajralmas tarkibiy qismidir. Shu bois, tabiatni muhofaza qilish, unga nisbatan mas'uliyatli munosabatda bo'lish qadimdan o'zbek xalqining milliy qadriyatlari tizimida muhim o'rin egallab kelgan.

Bugungi globallashuv sharoitida ekologik tahdidlarning kuchayishi, tabiiy resurslardan me'yoridan ortiqcha foydalanish, urbanizatsiya va sanoatlashtirish jarayonlarining tezlashuvi tabiatning tabiiy muvozanatiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda nafaqat ekologik boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, balki aholining ekologik ongini, ekologik madaniyatini va ma'naviy mas'uliyatini oshirish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Ayniqsa, milliy qadriyatlarimizda mujassam bo'lgan tabiatga ehtirom, halollik, me'yor, mas'uliyat, nafsni tiyish kabi tamoyillar ekologik xulq-atvorning barqaror me'yorlarini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda ekologik ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Orolbo'yi mintaqasini tiklash, yashil hududlar maydonini kengaytirish, chiqindilarni boshqarish tizimini modernizatsiya qilish, "Yashil makon" umummilliy loyihasi kabi tashabbuslar mamlakatda ekologik madaniyatni yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Bu jarayonda jamiyatning barcha qatlamlarini tabiatga nisbatan ongli munosabatga chaqiruvchi milliy va ma'naviy qadriyatlarning ahamiyati yanada ortib bormoqda.

Asosiy qism. Jahon afgor ommasini ko'pdan tashvishga solib, bezovta qilayotgan eng o'tkir va dolzarb muammolar cho'qqisida hamon yashovchanligini ta'minlayotgan global

masshtab va miqyos kasb etib ulgurgan ekologik inqirozlardir. Uni salbiy ta'sir ko'lamini yumshatish, yangilarini oldini olish, mavjud ekologik tanglikdan chiqishni maqbul yechimlarini izlab topish, ilmiy asoslash va amaliy bartaraf qilish umumbashariy dolzarb masalalardandir. Zero, dunyoviy muammolar ichida tabiatni asrash yadro urushi xavfining oldini olish problemasidan keyingi o'rinda turibdi[1].

Darhaqiqat, ekologik vaziyat tobora keskinlashib uning geografiyasi muntazam kengayishi jahon jamoatchiligining diqqat-e'tiborini yanada ko'proq o'ziga jalb qilmoqda. Davlatimiz rahbari keltirganlaridek; "Tuproq suv va havoning haddan ziyod ifloslanishi, iqlim o'zgarishi, o'simliklar va hayvonot dunyosidagi tashvishli o'zgarishlar ekologik muammoni taraqqiyotga yuz tutayotgan mamlakatlarning xavfsizligiga jiddiy tahdid solayotgan omillardan biriga aylantirmoqda[2].

Axir inson aqli, tafakkuri "qilni-da qirq yorib", galaktikalar darajasida fikr yuritayotgan, gigant texnika va nanotexnologiyalarni behad ko'p kashf qilayotgan, sanoat darajasida ishlab chiqarish asoslari behad darajada tezlashib, kuchaygandan-kuchayib borayotgan, ilm-fan va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal taraqqiy etib, zamonaviy axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanish urfga kirib bo'lgan davrda ham nega ekologiya bilan bog'liq muammolar hayot-mamot masalasi sifatida kun tartibida turibdi? Bizningcha buning sabablari:

- insonning Ona tabiatga nisbatan insoniylik tuyg'ularga allaqachonlar darz ketib ulguriligi;
- inson qalbi va ongini daromad, foyda topish ilinjida - nafs, yulg'uchlik, bemehrlik, bag'ritoshlik egallab olganligi;
- tabiat hamisha inson qahriga emas, mehriga, parvarishiga muhtojligini chuqur his, idrok etish madaniyatini hamon sustligi;
- tabiatning o'zi tabibligiga izin va keng imkoniyatlarni berilmayotganligi;
- uning ishlariga ba'zan to'porilarcha aralashuv tendensiyasini hamon mavjudligi;
- tabiatga mulkiy munosabatlarda ijtimoiy-mayishi yondoshuvlarni ustunligi, ma'naviy-axloqiy mas'uliyat sifatini passivligi;
- odamning tabiatga bo'lgan munosabatlarida oqilonalikni zayifligi;
- biz tabiatdan inom - ehson kutib o'tirmaymiz, balki undirib olamiz, degan kibr va zo'ravonlikni mavjudligi;
- atom, vodorod, neytron bombalari va ularni sinovlari, yangi dahshatli turlari ishlab chiqarishga urinishlar ortib borishi;
- ilm-fan taraqqiyoti tufayli vujudga kelgan texnikaviy bosim, noosfera;

- inson va u yashayotgan sayyoraning kelajagiga tahdid solib ulgurgan umumsayyoraviy ekologik tanglik, falokatlariga nisbatan loqaydlilik va beparvolik, tomoshabinlik kabi illatlarni mavjudligi;

- kishisi ongini texnokratiya zaharidan forig' emasligi;
- sun'iy ikkinchi tabiat soyasida jonli tabiat qolib ketayotganligi;
- inson-tabiat uyg'unligiga putur yetganligi, begonalashishni kuchayishi;
- demografik o'sish, inson orzu-havaslarini hadsiz ko'payishi;
- urbanizatsiya, sanoat sohalarini o'sishi va texnoopimizmni kuchayishi;
- ilm-fan, texnika va texnologiya yutuqlaridan samarali foydalanishdagi noshudlik;
- mumtoz an'anaviy ekologik qadriyatlarga, asrlar bo'yi to'plangan, ortirilgan tajribalarga nisbatan bepisandalik;
- nazariya bilan amaliyot o'rtasida tafavut va boshqalar shular sirasidandir.

Ko'rinadiki, global ekologik buhronlarning manbalari rangbarang, biroq, inson o'zgarmasa - olam o'zgarmas, ekologik muammolar barham topmas. Zero, inson o'z ma'naviy qadriyatlari bilan tabiatni gultojisi. Uning ekologik madaniy sifati taraqqiyot darajasi va taqdirini belgilaydi.

Insoniyat ayniqsa keyingi 100 yillikda u o'z tafakkur qudrati bilan, biosfera ichida noosferani - texnikaviy muhitni yaratdi. Texnika insoniyatning yashash muhitiga aylanib, zaminu zamonlar tarixida inson uning vositasida ulkan geologik kuch bo'lib ilk marta maydonga chiqishi bilan birga biosferadagi o'zgarishlarning asosiy sababchisiga ham aylandi.

V.I.Verkadskiy keltirganidek: "Biosfera inson tomonidan ongli va asosan ongsiz ravishda keskin kimyoviy o'zgarishlarga duchor etilmoqda. Inson quruqlikning fizikaviy va kimyoviy havo qobig'ini, uning barcha tabiiy suvlarini o'zgartirmoqda... Hozir biz biosferadagi yangi geologik evolyusion o'zgarishlarni boshdan kechiryapmiz. Biz noosferaga kirib bormoqdamiz".[3] Boshqacha aytganda, fikrlarimiz narsalashib bizni tobora ko'proq o'rab olmoqda. Noosfera, tafakkur, biologik xususiyatga ega bo'lmagani uchun biologik muhitning o'rnini egallashga, uni asta-sekin siqib chiqarishga harakat qilmoqda va u muayyan vaqt o'tganidan so'ng o'z ijobiy xususiyatini yo'qotib salbiy hodisaga aylanmoqda. Ommaviy qirg'in qurollari, radioaktiv chiqindilar, kislota yomg'irlar kabilar bu yorqin misollardandir. Noosferaning paydo bo'lishi atmosferani, dunyo okeanni, yer osti va yer usti suvlarini, nabototni, hayvonotni, hatto insonni o'zini ich-ichidan kimyoviy zaharlanishga olib kelmoqda. Ayni damda bioxilma-xillik tizimiga tuzatib bo'lmaydigan darajada jarohat, jiddiy putur yetmoqda. O'simliklar, hayvonlarning ko'pgina turlari butkul yo'qolib ketish xavfi ostonasida turib qolayotgani kabi salbiy faktlar hali g'o'r insonni ko'ra-bila turib, o'zi o'tirgan shoxga bolta urishga qiyoslash mumkin.

Modomiki sog'lom ekologik muhit hamma uchun har doim hayotiy zarurat sharti ekanligini aksariyat katta ko'pchilik biladi, biroq bilib turib o'z bilganidan qolmaslik, qaysarlik, o'jarlik, loqaydu beparvolik, menga dahli yo'q qabilida ish tutish kabilar shundoq ham o'zi tarang ekologik xatar, fojealarni yanada yaqinlashishiga, kuchayishiga, chuqur ildiz otishga beminnat ko'maklashdi. Muammo yechimini chigallashtirishga, qiyinlashtirishga, murakkablashtirishga shaksizki hissa qo'shadi.

So'nggi pushaymon o'zinga dushman deydi, dono xalqimiz. Miqiyosi katta-kichik ekanligidan qa'tiy nazar ekologik xatarlarni yuz bermasdan uning oldini olishga garchand oz bo'lsa-da fursat, yilt etgan umid bor ekan, harakat qilmoq, uyg'onmoq kerak. Modomiki, ekologik qadriyatlarga xususan mumtoz milliy ekologik qadriyatlarga bepisandlik, kalondumog'lik, o'zi bo'larchilik, tomoshabinlikni oqibatlar juda qimmatga tushadi. Zero, keyin Xo'jayosh bo'lib o'kirib yig'lagandan hech qanday naf yo'qdir. Ekologiya-ekologiya uchun emas, balki jamiki insoniyat omonligi, salomatligi, farovonligi uchundir.

Yuqoridagilardan chiqadigan xulosa shuki, insoniyat kelajakda o'zini va o'z sayyorasini muqarrar ekologik halokatdan qutqaraman desa, zaminu zamon va kelajak oldidagi ma'naviy-madaniy mas'uliyatini to'la anglagani holda hamkoru hamjihat bo'lib amaliy ishlarga o'tmog'i, tabiat tabiiyligini, ekotizim barqarorlikni saqlab qolish ularning eng ulug' qadriyatlaridan biriga aylanmog'i darkor. Shaksizki, bu borada jonajon Vatanimiz - Yangi O'zbekistonda boshlangan miqiyosi ulkan ezgu amaliy ishlar unga avangard bo'lishi mumkin. Bu borada fikr yuritganimizda ko'z o'ngimizda mamlakatimizda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasidagi amaliy ishlar, qo'shni mamlakatlar bilan birgalikda Mintaqaviy iqlim strategiyasini amalga oshirishga kirishilgani, Toshkentda Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishlarini o'rganish universiteti tashkil etilgani[4], O'zbekistonda 2025 yilni "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deb e'lon qilingani, "yashil" texnologiyalarni joriy etilish, suvni tejash, ko'kalamzor hududlarni ko'paytirish, Orol fojiasining oqibatlarini yumshatish, aholi salomatligini mustahkamlash hamda O'zbekiston tashabbusi bilan Markaziy Osiyo mamlakatlari hamkorligida "Orolbuyi mintaqasini ekologik innovasiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish to'g'risida"gi (2021 yil 18 may) BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyusiyasi, uni hayotga tatbiq etish borasida tizimli va kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilgani kabilar bir-bir o'tadi.

Mamlakatimiz florasi juda ham boy. Birgina uning o'simliklar dunyosi haqida gapirganimizda, unda to'rt yarim ming turga yaqin o'simliklar mavjudligi, mingdan ziyodi dorivorlik xususiyatiga egaligi kabilar ham bizga ko'p narsani anglatadi va tabiat tabiiyligini asrab qolishga, himoyalashga ma'naviy mas'uligimiz oshiradi.

Yuqoridagi ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, tabiatning tabiiyligini saqlash nafaqat ekologik xavfsizlikni ta'minlashning, balki jamiyatning ma'naviy-axloqiy barqarorligini mustahkamlashning ham muhim omilidir. Insonning tabiatga munosabati, uni asrab-avaylashga bo'lgan ehtiyoji va mas'uliyati milliy qadriyatlar, tarixiy an'analar va ma'naviy me'yorlar bilan chambarchas bog'liq. Ayniqsa, o'zbek xalqining qadimdan shakllangan tabiatparvarlik an'analari – me'yorni bilish, halollik, tabiatga ehtirom va poklik tamoyillari ekologik madaniyatning barqaror asosini tashkil etadi.

Hozirgi davrda ekologik muammolarning global ko'lamda keskinlashuvi ekologik ong va ekologik tafakkurni rivojlantirishni zaruriyatga aylantirmoqda. Shu jihatdan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ekologik tarbiya bilan uyg'unlashtirish, aholi, ayniqsa yoshlarning tabiatga nisbatan mas'uliyatini kuchaytirish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'ladi. Ekologik burchni his etgan, tabiatga ongli munosabat bilan yondashadigan shaxslar sonining ko'payishi jamiyatda barqaror ekologik xulq-atvorni shakllantiradi.

O'zbekistonda ekologik barqarorlikni mustahkamlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan davlat siyosati milliy qadriyatlarning amaliy hayotda ro'yobga chiqishining muhim ko'rinishidir. Xususan, "Yashil makon", Orolbo'yini tiklash, chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirish va ekologik ta'limni kuchaytirish kabi tashabbuslar ekologik ongli jamiyatni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Shu ma'noda, tabiatning tabiiyligini asrash milliy qadriyat sifatida nafaqat ekologik ehtiyoj, balki ma'naviy-madaniy zaruratdir. Ekologik madaniyatning ildizlari milliy qadriyatlarga tayanar ekan, u jamiyatning mustahkam ma'naviy asosini yaratadi. Demak, tabiatni asrashga qaratilgan har bir tashabbus – milliy o'zlikni anglash, ma'naviy kamolot va kelajak avlod manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiluvchi umumxalq qadriyatidir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda inson va tabiat o'rtasida uyg'unlikka erishish, uni ta'minlovchi qadriyatlarni kishilar qalbida uyg'otish ekologik holatni tubdan yaxshilanishga olib keladi. Zero, tabiatga insoniy mehr – oqibat ekologik xatarlardan olamni qutqaradi. Tabiat bilan uyg'un bo'lishga intilish, yashash, himoyalash qadriyat sifatida ajdodlardan bizga merosdir. Ekologik holatni yaxshilashda ularning boy tajribasiga tayanish, ekologik qadriyatlar rivojiga e'tiborni uzliksiz oshirib borish oqilonalikdir. Hozirgi kunda sun'iy intellekt – to'rtinchi sanoat inqilobining asosi bo'lsa, "Yashil makon" va "Yashil energetika" ekologik qadriyat sifatida barqaror taraqqiyot omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш.М Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: "Ўзбекистон" нашриёти, 2021.

2. Саидмурод Мамашокиров. Ваҳимами ёки ҳақиқат? (1988)
<https://ziyouz.uz/matbuot/qayta-qurish-davri-matbuoti/1988-2/>
3. Вернадский В.И. Начало и вечность жизни М., Сов. Россия, 1989.
4. <https://qalampir.uz/news/uzbekistonda-2025-yilga-k-anday-nom-berilishi-e-lon-k-ilindi-110099>.
5. Khudayberdievich K. S., Aslamovna B. S. Public consciousness and public mood //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 9. – С. 1004-1008.
6. Aslamovna B. S. THE ROLE OF SOCIAL NORMS IN THE MORAL RISE OF SOCIETY //Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 54-61.